

INVESTITSIYAVIY NIZOLARNI HAL ETISHDA XALQARO TIJORAT SUDLARINING AHAMIYATI

Sotvoldiyev Shuxratjon Sharifjon o'g'li
shuhratjonsotvoldiyev@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish va investitsiyaviy faoliyatni qo'llab quvvatlash borasida yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Investitsiyaviy nizolarni hal etishda investorlar asosan davlat sudlaridan ko'ra arbitraj va boshqa vositalarga murojaat qiladilar. Suhbu maqolada ham investitsiyaviy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal etishda xalqaro tijorat sudlarining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Investitsiya, xalqaro tijorat sudlari, arbitraj, arbitr, ICSID, nizolarni muqobil hal etish.

Абстракт: В настоящее время в нашей стране проводится большая работа по созданию благоприятной среды для иностранных инвесторов и поддержке инвестиционной деятельности. При разрешении инвестиционных споров инвесторы в основном прибегают к арбитражу и другим средствам, а не к государственным судам. В статье также представлена информация о значении международных коммерческих судов в разрешении споров, возникающих в процессе инвестиционной деятельности.

Ключевые слова: Инвестиции, международные коммерческие суды, арбитраж, arbitr, МЦУИС, альтернативное разрешение споров.

Abstract: Currently, a lot of work is being done in our country to create a favorable environment for foreign investors and support investment activities. In

resolving investment disputes, investors mainly resort to arbitration and other means rather than state courts. This article also provides information on the importance of international commercial courts in resolving disputes arising in the process of investment activities.

Keywords: *Investment, international commercial courts, arbitration, arbitrator, ICSID, alternative dispute resolution.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan boshlab xalqaro maydonda faol ravishda iqtisodiy aloqalarini rivojlantirib bormoqda. Yurtimizga xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish maqsadida hukumatimiz tomonidan investorlar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratish ustida faol ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda hukumatimiz tomonidan bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi, misol uchun 2019-yilda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunda investitsiya faoliyatiga doir munosabatlar huquqiy nrmalar asosida tartibga solingan. Mamlakatimizda kirib kelayotgan investorlar bilan munosabatga kirishishda ushbu qonun asosiy normativ hujjat hisoblanadi. Shu bilan birga davlatimiz bu bilan cheklanib qolmasdan xorijiy mamlakatlar bilan investitsiya masalalariga doir bir qator investitsiyaviy bitimlar tuzib, bu bitimlarda har bir davlat bilan investitsiyaviy faoliyatga doir masalalarda har bir bitim tuzuvchi davlat bilan o'ziga xos tarzda munosabatlar kelishib olingan masalan Turkiya, Tojikiston, Xitoy va boshqa davlatlar bilan o'z vaqtida investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilishga doir investitsiyaviy bitimlar tuzilgan bo'lib ushbu bitimlarda har bitta

hamkor davlat bilan investitsiya faoliyati sohasida alohida huquq va majburiyatlar o'zaro kelishib olingan bo'lib, davlatlar o'rtasida nizolar yuzaga kelganda avvalo shu bitim asosida nizolar hal etiladi. Jahon tajribasidan ma'lumki, har qanday davlatda investitsiya faoliyati jarayonida nizo kelib chiqishi odatiy hol bo'lib hech qaysi davlatda bu istisno qilinmaydi, investitsiyaviy nizolar esa odatda ikki turga bo'linadi:

Investor-davlat nizolari: Xorijiy investorlarga qarshi davlat tomonidan qilingan huquqiy harakatlar (masalan, investitsiyalarga zarar yetkazish, mulkni musodara qilish yoki boshqa nohaq muomalalar) sababli yuzaga keladi.

Davlat-davlat nizolari: Biror davlat o'zining investorlaridan biriga zarar yetkazgan boshqa davlat bilan yuzaga keladigan nizolar.

Investitsiyaviy nizolar odatda quyidagi omillar tufayli yuzaga keladi:

- Milliy qonunlardagi o'zgarishlar va me'yorlar.
- Mulkni musodara qilish yoki investitsiyalarni kamsitish.
- Hukumatning notegishli siyosatlari.

Bilamizki investitsiyaviy nizolar vujudga kelganda investorlar nizolarni mahaliy davlat vakolatli sudlarida emas balki, xalqaro investitsiya arbitrajlarida ko'rishni afzal ko'radilar. Nizolarni arbitrajlarda ko'rish investorlar orasida deyarli odat tusiga kirgan bo'lib, bunga asosiy sabab investitsiya kiritilayotgan davlatning vakolatli sudlarining adolatlilik va xolisligiga ishonmasligidir. Shu jihatdan xalqaro arbitraj sudlari investitsiyaviy nizolarni ko'rishga ixtisoslashgan alohida turi ham shakllangan. Misol uchun Jahon banki qoshida faoliyat olib boruvchi Investitsion nizolarni hal qilish xalqaro markazi (ICSID), investitsiya sohasida nizolarni hal qilishga ixtisoslashgan markaz hisoblanadi. ICSIDning asosiy vazifasi

— davlatlar va investorlar o'rtasidagi investitsiya nizolarini hal qilishda mustaqil va neytral platforma taqdim etishdir. Ushbu tezisda ICSIDning investitsiyaviy nizolarni hal etishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. ICSID 1966-yilda Jahon Banki tomonidan tashkil etilgan va uning asosiy vazifasi xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal qilishdir. ICSIDning maqsadi — davlatlar va xorijiy investorlar o'rtasidagi nizolarni adolatli va samarali tarzda hal etish uchun arbitrlarni tayinlash va ularning qarorlarini bajarilishini ta'minlashdir. ICSIDning faoliyati xalqaro shartnomalarga asoslanadi, ayniqsa, investitsiyaviy himoya shartnomalari va xalqaro iqtisodiy huquq tamoyillariga tayanadi.

ICSIDning tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Arbitraj xizmatlari: ICSID tomonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun arbitraj xizmatlarini taqdim etadi.
2. Muhokama jarayonlari: ICSID davlatlar va investorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda muhokama olib boradi va tomonlar tomonidan tayinlangan arbitrlar yordamida hal etadi.
3. Yuridik platforma: ICSID xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal etishda mustaqil va tarafsizlikni ta'minlaydi.

ICSID investitsiyaviy nizolarni hal qilishda neytral va mustaqil platforma taqdim etadi. Arbitraj jarayoni ICSIDda quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Arbitrajni boshlash: Tomonlar nizolarini hal qilish uchun ICSID arbitrajini boshlashlari mumkin. Bu jarayon ko'pincha davlatlar va xorijiy investorlarga o'z manfaatlarini himoya qilish imkonini beradi.
2. Arbitrlar tanlovi: ICSID tomonlarning roziligi bilan arbitrlarni tanlaydi. Arbitrlar investitsiyaviy nizolarni adolatli va muvozanatli tarzda ko'rib chiqadi.

3. Qaror chiqarish: ICSID arbitrlar tomonidan chiqarilgan qarorlar davlatlar va investorlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda asosiy rol o'ynaydi. Bu qarorlar xalqaro miqyosda hurmatga sazovor bo'lib, tomonlar uchun majburiydir.

ICSIDning investitsiyaviy nizolarni ko'rishda samaradorligi quyidagi jihatlarida ko'rinadi:

1. Neytral platforma: ICSID investitsiyaviy nizolarni tarafsizlik asosida hal etadi, bu esa ishonchni oshiradi.

2. Tezkor qarorlar: ICSIDning qaror chiqarish jarayoni nisbatan tez bo'lib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Investitsiyaviy nizolarni hal qilishda ICSID asosiy mexanizm bo'lsa-da, boshqa xalqaro arbitraj tizimlari ham mavjud. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) UNCTAD (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi) arbitraji: UNCTAD investitsiyaviy nizolarni hal qilish bo'yicha xalqaro huquqni targ'ib qilishga ixtisoslashgan tashkilot. UNCTAD ko'plab davlatlar o'rtasidagi investitsiyaviy nizolarni muvofiqlashtirish bo'yicha ko'p yillik tajribaga ega. U asosan davlatlar va investorlar o'rtasidagi kelishuvlarni tayyorlashda, shuningdek, investitsiyaviy nizolarni hal qilishda yordam beradi.

2) LCIA (London Kammerasining Arbitraj Instituti): LCIA – Britaniyada joylashgan xalqaro arbitraj markazi bo'lib, global investitsiyaviy nizolarni hal qilishda faoliyat yuritadi. LCIA ning ko'plab afzalliklaridan biri shundaki, u taraflarga soddalashtirilgan jarayonlar va tezkor qarorlar chiqarish imkoniyatlarini taklif etadi.

3) ICC (Xalqaro Savdo Palatasi): ICC global savdo va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha yetakchi tashkilotlardan biri hisoblanadi. ICC arbitraj

tizimi ko'plab xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal qilishda ishtirok etgan. ICCning afzalligi bu uning sohaga ixtisoslashgan malakali mutaxassislari va arbitraj jarayoninining tezkorligidir.

4) SIAC (Singapur Arbitraj Markazi): SIAC – Xalqaro tijorat nizolarini hal etishda yetakchi arbitraj markazlaridan biridir. SIAC investitsiyaviy nizolarni hal qilishda samarali mexanizmni ishlab chiqqan va ko'plab Osiyo davlatlari uchun qulaydir. Bu tizim xususiy va davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishda keng qo'llaniladi.

5) ICC va CIETAC (Xitoy Xalqaro Savdo va Iqtisodiy Arbitraj Komissiyasi): ICC va CIETAC birgalikda ko'plab xalqaro investitsiyaviy nizolarni hal qilishda samarali ishlaydi. Xitoy iqtisodiyoti kengaygan sari, CIETACning ahamiyati ham ortmoqda. Bu arbitraj markazlarining asosiy afzalligi shundaki, ular o'z mintaqasida muhim iqtisodiy hamkorliklarni o'z ichiga oladi.

Arbitraj tizimlari investitsiyaviy nizolarni hal qilishda asosiy afzalligi neytral va mustaqil qarorlar qabul qilishdir. Arbitraj tizimlari taraflarning xohishiga binoan neytral va mustaqil muhokama jarayonini taqdim etadi. Bu tomonlar o'rtasidagi ishonchni oshiradi.

Arbitraj tizimlari jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo tizimi uchun samarali vosita hisoblanadi, chunki ular global miqyosda iqtisodiy hamkorlikni ta'minlaydi. Biroq, arbitrajlarining faoliyati ham muammolardan holi emas. Arbitrajlarda nizolarni ko'rishning juda yuqori xarajatlari o'rtahol kompaniyalar uchun unga murojaat qilishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shunindek, arbitraj qarorlarini bajarish har doim oson emas, ayniqsa, davlatlar tomonidan ijro etilishi. Bu ham

alohida masala bo'lib ba'zida siyosiy vaziyat tufayli arbitraj qarorlarini ijrosini ta'minlash deyarli imkonsiz bo'lib qolishi ham mumkin.

Hozirgi kunda yuqoridagilar qatoriga nisbatan yangi vujudga kelgan Xalqaro tijorat sudlari kirgan. Xalqaro tijorat sudlari (International Commercial Court) — bu xalqaro tijorat nizolarini hal qilish uchun tuzilgan maxsus suddir. U birinchi marta 2015-yilda Singapurda tashkil etilgan va hozirda bu sud tizimi xalqaro investitsiya sharoitida o'zining samarali ta'sirini o'tkazmoqda.

Investitsiyaviy nizolar ko'pincha ikki tomonning manfaatlarini o'z ichiga oladi — bir tomonda investitsiya kiritayotgan shaxs yoki kompaniya, boshqa tomonda esa davlat yoki davlatlararo tashkilotlar. Xalqaro tijorat sudlarining muhim afzalliklaridan biri uning mustaqil sudlov tizimi bo'lib, bu muhim tijorat nizolarida taraflarning teng huquqliligini ta'minlaydi. Xalqaro tijorat sudlari ko'pincha xalqaro qonunchilik me'yorlariga asoslanib qarorlar chiqaradi, bu esa adolatli va xolis bo'lishiga xizmat qiladi.

Xalqaro tijorat sudlarining arbitrajlardan afzalliklaridan biri bu uning sud organi sifatida apellatsiya instansiyasining mavjudligi hisoblanadi. Bilamizki, Arbitraj sudlarida apellatsiya instansiyasi bo'lmaydi va arbitrajning chiqargan qarori ustidan shikoyat qilib bo'lmaydi, bu esa ko'p hollarda qaror o'ziga qarshi chiqqan taraflar o'zini himoya qilish imkoniyatini cheklab qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

Investorlar uchun iqtisodiy nizolarni xalqaro tijorat sudlarida ko'rib chiqish sud ekspertizasi, betaraflik, qarorlarning ijro etilishi, samaradorlik va moslashuvchanlik kabi ko'plab afzalliklarni taqdim etadi. Bu imtiyozlar birgalikda barqaror huquqiy muhitga hissa qo'shadi, bu esa Xalqaro tijorat sudlarini yuqori

darajadagi iqtisodiy nizolarni hal qilish uchun jozibador variantga sifatida ko'rsatadi. Xalqaro savdo va investitsiyalar rivojlanishda davom etar ekan, xalqaro tijorat sudlarining roli investorlar huquqlarini himoya qilish va iqtisodiy ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda investorlar uchun nizolarni hal etishning muqobil yo'llari juda ko'p bo'lib ular qatoriga nisbatan yangi vujudga kelgan xalqaro tijorat sudlari ham qo'shilgan bo'lib, u investorlarga nizolarni nisbatan tez ko'rish, chiqargan qarori ijrosining arbitrajlariga qaraganda samaraligi bilan ajralib turadi. Investorlar uchun nizolarni muqobil hal etish vositalarining xilma-xil bo'lishi ular uchun investitsiyaviy faoliyat olib borishi uchun ishonch oshiradi hamda mamlakatlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi. Xususan yurtimizda ham bu kabi sudlarni tashkil etish mamlakatimizni investorlar uchun ishonchli investitsion hududga sifatida ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xalqaro savdo huquqi. Darslik. // Mualliflar jamoasi / yu.f.d., prof. S.Gulyamov umumiy taxriri osqida. - T.: TDYU, 2019. - 315 b
2. Smith S. et al. International Commercial Dispute Resolution //Int'l Law. – 2008. – T. 42. – C. 363.
3. Huo, Z., & Yip, M. (2019). Comparing the international commercial courts of China with the Singapore International Commercial Court. International & Comparative Law Quarterly, 68(4), 903-942.

4. Yip, Man. "The resolution of disputes before the Singapore International Commercial Court." *International & Comparative Law Quarterly* 65.2 (2016): 439-473.

5. Yip, Man. "The Singapore International Commercial Court: The Future of Litigation." *Erasmus L. Rev.* 12 (2019): 82.